


Navro'z jozibasi

Antologiya



2024

A decorative border of watercolor illustrations surrounds the central text. It includes various tropical plants like monstera leaves, bird of paradise flowers, and other colorful blooms in shades of green, blue, orange, and pink.

Navro‘z jozibasi

Antologiya

Loyiha asoschisi: Nargizabonu Mamadaliyeva

2024

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

JustFiction! Edition is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-6-74608-9

Copyright© 2024 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group



Berdiyev Umurzoqali

Umurzoqaliyevich

*1960-yil Farg‘ona viloyatida tug‘ilganlar. Huquqshunos.
She‘rlari bir qancha antologiyada chop etildi.*

BIZ

(Mirakbarjon nevaram tilidan)

Toshkentdagi bobom yaxshi, buvim yaxshi,

Qishloqdagi bobom bilan buvim yaxshi.

Qalbim daryo, bag‘ri ummon

dadam yaxshi, onam yaxshi,

Duogo‘yim katta buvim yanayam yaxshi.

Charos ko‘zli katta singlim yanayam yaxshi,

Kichik singlim ukam borku,

Xusanboyim, u ham yaxshi, men ham yaxshi.

Amakim bor, tog‘am bor qalbi daryo.

Ayacham bor juda-juda yaxshi.

Ammalarim mehribonim yana yaxshi.

Barcha yaxshi, men ham yaxshi.

Kichik tog'am polvonim,

Katta tog'am yo'l boshchim

yana yaxshi, juda yaxshi.

Xolajonim dil chirog'i Dilnura yaxshi, barcha
yaxshi

Dadajonim qalb ardog'im, mehribonim

o'ta yaxshi, yanayam yaxshi,

Fotimabonu aytgan eng chiroyli

kelinoyim yanayam yaxshi,

Barcha yaxshi, men ham yaxshi.

Sababchi bor, el boshchi bobomiz,

buvimiz bor, barcha yaxshi.

Tug'ilajak jiyanim bor, olam yaxshi, dunyo yaxshi.

Madadkorim, ollohim bor yagona

U bor yaxshi, yana ham yaxshi,

Borimiz bor, zo'rimiz bor, Biz yaxshi.



Yunusaliyeva Sevarabonu Umurzaqali qizi

1993-yil 14-noyabr kuni Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. 2012-yil Toshkent yuridik kollejini hamda, 2023-yil Qo‘qon davlat pedagogika institutining ‘‘O‘zbek tili va adabiyoti‘‘ fakultetini tamomlagan. She‘rlari bir qancha ijodiy to‘plamlarda nashr etilib kelinmoqda. Ba‘zi xalqaro antologiyalarning muharriri.

ONAJONIM

Yuzingizdan doimo,
Yorug‘ nurlar taralsin.
So‘zingizdan bir dunyo,
Baxt kuylari yaralsin.

Joynomozga egilib,
Baxtimizni tilaysiz.
Ko‘zlar yoshlar to‘kkanda,
Boshimizni silaysiz.

Onajonim allangiz,
Bizga orom baxsh etar.
Siz duolar qilsangiz,
Dildan tashvish-g‘am ketar.

MENING YURTIM

Mening yurtim serquyosh o'lka,
Unga qalblar entiqib boqar.
Sharshara-yu soylarin ko'ring,
Toshdan-toshga urilib oqar.

Sersuv yerlar, musaffo osmon,
Atrofida baland tog'lari.
Bog'bon asrab-avaylaydigan,
Serhosildir, bexisht bog'lari.

Insonlari sofdil, mehnatkash,
Yaxshilikni qilmaydi kanda.
Faxrlanib ta'zim qilishar.
Biz yashar tengsiz chamanda.

XAYOLLARIM

Parvoz aylab ko‘m-ko‘k falakka,
Bulutlarni quchgim keladi.
Bulutlarning bo‘lib hamrohi,
Samolarga uchgim keladi.

Moviy dengiz uzra men suzib,
Baliqlar-la so‘zlashgim kelar.
Dunyo bo‘ylab aylanib, kezib,
Qushlar bilan do‘stlashgim kelar.

Hayolparast bormikan manday,
Osmonlarni orzu qilguvchi.
Baliqjon ham so‘zlasin qanday,
Go‘yoki u so‘zlash bilguvchi.

O‘ylar keti tugamas aslo,
Og‘ushida suzging keladi.
Atrof uzra kezuguvchi shamol,
Daraxt bargin silab yeladi.

Bu o‘ylarga asosiy sabab,
Tabiatning latofatidir.
Borliqdagi bu mo‘jizalar
Robbimizning karomatidir.



Berdiyev Akbarali Umurzoqali o'g'li

2003-yil 29-may kuni Toshkent shahrida tug'ilgan. Qozog'iston davlat universiteti, hamda Toshkent Yuridik Universitet 3-bosqich talabasi. "Qo'sh qanot" ijodiy uyushmasi a'zosi. Bir qancha antologiyada ijodi chop etilib kelinmoqda. Ba'zi xalqaro antologiyalarning muharriri.

OTAJONIM, OTAM

Ulug'im, jasur,
Tog'day mag'rur.
Yashinday yorqin otam,
Olmosday o'tkir so'zingiz,
Po'latday metin irodangiz.
Donishmandim otam.
To'lqinday jo'shinim,
Quyoshday so'ngsiz mehrli,
Daraxtday sabarli
Pirlarday o'gitli otam.
Mening jonu jahonim,
Dunyolarga alishmam,
Mehribonim yagonam otam.



Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna

1987-yil 12-dekabr kuni Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanida tavallud topgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi. Juda ko'p onlayn va offlayn ko'rik tanlovlari, konferensiyalar ishtirokchisi.

2003-yili Toshkent Bank hisob-kredit kollejiga eng yuqori ball bilan kirib, bu o'qishni 2006-yili imtiyozli qizil diplom bilan tamomladi.

2009-yili "Sardorlar maktabi"ning maxsus kursida o'qib, Oltin diplom bilan bitirdi.

2021-yili 25-mart kuni "Respublika filologlari" kanalidagi "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" mavzusida o'tkazilgan tanlovning "Eng yaxshi ijodkor" yo'nalishida faol ishtiroki uchun 3-darajali diplom va sertifikat bilan taqdirlandi.

2022-yil 7-fevral kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabalari orasida Alisher Navoiy tug'ilgan kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Alisher Navoiy—g'azal mulkingning sultoni" nomidagi "Eng yaxshi she'r" tanlovida ishtirok etib 3-o'rin egalladi.

2023-yil u uchun omadli va yutuqlarga boy bo'ldi, chunki bu yilda, "Innovatsion targ'ibotchi", "Ta'lim iftixori" va "MDH eng yaxshi studenti" ko'krak nishonlarini oldi. 50 dan ortiq maqola, ilmiy maqola, she'rlari, hikoyalari mahalliy va xorijiy jurnallarda nashr etildi.

30 dan ortiq antalogiyaga bergan ijodiy ishlari Germaniya, Rossiya, Amerika, Turkiya davlatida va o'zimizning yurtimizda o'zbek tili, ingliz tili, turk tillarda nashr etildi.

100 dan ortiq diplom, sertifikat, faxriy yorliq, tashakkurnomalar egasi

bo'ldi.

QDUda o'tkazilgan "Onam suygan taomlar" onlayn ko'rik tanlovida faxrli 1-o'rin olib, 1-o'rinli diplom, "Eng chaqqon qiz" faxriy yorlig'i, esdalik sovg'alarni Universitetning rektori tomonidan tantanali ravishda taqdim etildi.

"Biz zo'ravonlikka qarshimiz" shiori ostidagi insholar tanlovida 2-o'rin oldi.

2023-yil 31-dekabr kuni SPSC elchisi sifatida tan olinib, masus nishon va sertifikat bilan taqdirlandi.

"Yuksalish sari —barcha uchun" loyihasi asoschisi. Ezgulik volontyorlar akademiyasi kengash raisi.

BERDIBOYEVA SALIMAXON SHOKIRJON QIZI HOJI ONAMIZ XOTIRALARI MANGU

Berdiboyeva Salimaxon Shokirjon qizi 1938-yilda tug'ilganlar, millatlari o'zbek, otalarining ismi Shokirjon Madamin og'li, onalarini ismi Zuhra buvi. Ko'p farzandli oilada tug'ilganlar, lekin ularning ko'plari bolaligida va o'smirligida vafot etishgan. Salimaxon buvimizning bitta opalari va bitta akalari bo'lgan. Akalarining ismi Abdulboqi bo'lgan, yong'in havfsizligi bo'limida haydovchi bo'lib ishlaganlar, bo'sh vaqtlarida hunarmand kosib-etikdo'zlik bilan shug'illanganlar.

Salimaxon buvimiz oilada kichik farzand bo'lganlar, katta e'tiborda, mehrda ulg'aydilar. Alohida buvimiz katta bo'lgan hovli uy haqida aytsam: hovli uy mahalladagi eng katta hududga ega bo'lgan. Xonadon to'rtta xona, bitta ayvondan va katta bog'dan iborat bo'lgan. Xonadon doimo ozoda, saramjon-sarishta tutilgan. Har bir xonaning eshigi go'zal naqshlar bilan ishlangan, chiroyli milliy naqshlar bilan to'qilgan gilamlar solingan.

Buvimiz katta bo'lgan hovlidagi bog' mahalladagi eng go'zal, hamda katta bo'lgan, bu bog'da turli-tuman mevali daraxtlar, sabzavotlar, poliz ekinlari, turli-xil gullar: gul hayri, gul toji, chinni gul, hina, rayhon,

atirgullarning turli navlari yetishtirilgan.

Oilada farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor berilgan, ayniqsa axloqiy, aqliy, mehnat, estetik tarbiyaga. Mahalla qizlari, ayollari asosan do'ppi jiyak va lozim jiyaklarini to'qish bilan shug'illanganlar. Bizning buvimiz juda serg'ayrat, faol, mehnatkash bo'lganlar, shuning uchun mahalla qizlarini ichida do'ppi jiyakni eng ko'p to'qish musobaqasida hammani yutganlar.

Bir kuni uzun xodani sudrab kelayotganlarida Berdiboy buvimiz ko'rib: "Bu qiz, kichkina bo'lishiga qaramay katta xodani o'zi sudrab kelyapti, bu qizni kelin qilaman"-deb niyat qilib qo'yishadi.

Salimaxon buvimiz o'n to'qqiz yoshlarida turmushga chiqdilar. Buvimizni dugonalari ancha yoshroq, ertaroq turmushga chiqishgan. Buvimiz bilan Usmonali bobomizning fotihalari bobomiz harbiy hizmatda bo'lgan paytda bo'lib o'tgan, ilgari harbiy hizmat uch yil bo'lganligi sababli to'y vaqti cho'zilgan.

Bobomiz bilan buvimiz bir-birlarini yaxshi ko'rib turmush qurishgan.

Yoshliklaridan tadbirkorlikni, savdo-sotiqni o'rganganlar. Ilgari Qo'qon shahrida bozor haftada ikki kun: chorshanba va yakshanba kunlari bo'lar edi, shu kunlari buvimiz qo'shni ayollar bilan o'zlari to'qigan do'ppi va lozim jiyaklarni sotish bilan shug'illanganlar. Keyinchalik ushu faoliyatlarini oilaviy tijorat darajasiga olib chiqdilar.

Salimaxon buvimiz faol, mehnatsevar, o'ta mas'uliyatli bo'lganliklari sababli mahallada, mehnat jamoasida katta hurmatga ega bo'lganlar. Paxta parvarishi va terimi mavsumlarida eng yuqori natijalarga erishganliklari sababli turli mukofotlar, ko'krak nishonlar bilan taqdirlanganlar. Uchko'prik (ilgari Leningrad rayon) tuman kengashi deputati etib bir necha bor saylanganlar.

Tarbiyachilik kursini bitirib, sertifikat olganlar.

Buvimiz mahallada ilk bor bolalar bog'chasi ochilishida faol ishtirok etganlar. Mahalla guzarida bolalar bog'chasining zanonaviy binosi qurilgan, ushbu bog'chada tarbiyachi bo'lib ancha yillar ishladilar.

Buvimizga bolalar bog'chasida bolalar ta'lim, tarbiyasi bilan shug'illanish juda ham qiziqarli bo'lgan, lekin tarbiyachilarning oylik maoshi juda oz bo'lganligi sababli, bolalar bog'chasidan ishdan bo'shab, ollilaviy tijorat bilan shug'illanishni boshlaganlar.

Oilaviy tadbirkorlikni do'ppi jiyakni bozorda sotish bilan

- boshladilar. Ushbu faoliyat quyidagi jarayonlarni o'z ichiga olar edi:
- 1) atrofdagi qo'shni mahallalardagi qizlar, ayollar to'qigan jiyaklarni ulardan naqd pulga sotib olish;
 - 2) bo'yash;
 - 3) yuvish;
 - 4) o'rash;
 - 5) bozorga olib borib mijozlarga sotish.

Do'ppi va lozim jiyaklari tabiiy mahsulotlardan: tozza ipak va paxta iplaridan to'qilgan.

Berdiboyevlar oila a'zolarining asosiy mehnat faoliyatlari tadbirkorlik bilan shug'illanishiga qaramasdan, usbu faoliyatni olib borishga davlat tomonidan qonuniy ruxsat etilmagan. Ittifoq kommunistlar tuzimi davrida xususiy tadbirkorlik bilan shug'illanish, atrofdagilarga qaraganda boyroq yashashga ruxsat etilmagan. Shuning uchun oila a'zolari bir paytning o'zida ikki sohada ishlashga majbur bo'lganlar. Salimaxon buvimiz Oxunboboyev nomli kolxozda ishchi bo'lib, paxta yetishtirish va terishda ham faol bo'lganlar. Kolxozda har bir ishchining har kuni bajarishi kerak bo'lgan ish hajmi(normasi) bo'lgan. Buvimiz juda ham serg'ayrat, mehnatkash bo'lganliklari sababli ham kolxozda ham tadbirkorlik bilan shug'illanishga ulgirar edilar, bunda farzandlar faol yordamchi edilar. Oiladagi oltita farzandlar: uchta o'g'il va uchta qizlar kun tartibi aniq belgilangan bo'lib: tushlikkacha maktabda o'qish, ovqatlanish, kun botguncha dalada ishlash(yani buvimizga belgilangan ish hajmini bajarishga yordam berish), kechki ovqatdan keyin hamma oila a'zolari hamjihatlikda do'ppi jiyakni bo'yash, o'rash, bozorga tayorlash bilan shug'illanishgan. Oilada erta yotib, erta turishga katta e'tibor berilgan, shuning uchun oilada baraka, to'kin-sochinlik, hamjihatlik bo'lgan.

Buvimiz sotuvga tayyor bo'lgan do'ppi jiyaklarni Qo'qon shahrida chorshanba, yakshanba kunlari va Marg'ilon shahrida payshanba kunlari bo'ladigan bozorlarda mijozlarga sotishgan. Savdo-sotiqda buvimiz halollikka katta e'tibor berishgan, mijozlarga mahsulotlarni qarzga ham ishonib berar edilar ham, biron inson to'y munosabati bilan pul kerak bo'lib qolsa, yordamlarini ayashmagan, bergan yordamlaridan hech nima umid qilishmagan. Shuning uchun ham buvimni taniganlar: "Salimaxon bemalol butun Qo'qonni sotib ola oladigan daraja puli ko'p"-deyishganlar.

Buvimiz sayohatni yaxshi ko'rar edilar, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'izistonning ko'plab shaharlarida, Moskava shaharlarida tijorat va sayohat bilan bo'lganlar, Haj ziyoratiga ham borib kelishganlar.

Buvimiz xushchaqchaq, gapga usta, hamma bilan oson til topisha oladigan inson edilar. Mahalladagi barcha tadbirlarda faol ishtirok etar edilar. Vafot etishlaridan bir hafta oldin ham mahalla ayollari bilan tadbirda ishtirok etganlar. Buvimiz juda ham qo'llari ochiq, sahiy bo'lganlar, xayri-ehson qilishni yaxshi ko'rar edilar, biror joyga mehmonga borsalar dasturxonga eng asl ne'matlarlarni o'rab olib borishardi.

Salimaxon buvimiz eng mehribon ona, eng mehribon buvijon bo'lganlar. Mahallada qo'ni-qo'shnilarning yuksak hurmatiga ega edilar. Mahalla ayollari maslahatga chiqishardi. Mehmonlarni yaxshi ko'rardilar, ularga shirin taomlarni pishirib mehmon qilardilar.

Tandirda shirin, mazzali non, somsalar, ayniqsa bahorda ko'k somsalarini, o'choq olovda osh, dimlama, qaynatma sho'rva, shavla, chuchvara, manti qozonda mantini go'shtli, ko'katli, oshqovoqli turlarini juda ham shirin tayyorlar edilar.

Har yili bog'ga oshqovoq ekishar edi, pishganda hamma farzandlariga, nevaralariga, qo'shnilarga, qarindoshlarga tarqatib berishni yaxshi ko'rardilar.

Quda-andachilik munosabatlarda hamma o'rnak olsa bo'ladigan darajadagi fazilatlar bor edi:

- 1) qudalarga doimo samimiy va hurmat bilan munosabatda bo'ldilar;
- 2) farzandlarning oilasida biror nizo chiqsa, hal qildilar, urush-janjal qilmadilar;
- 3) yaxshi, adolatli bo'ldilar.

Buvim ta'tilda ukam ikkimizni bozorga olib borishardilar va bizga o'zimizga yoqqan narsani olishimiz uchun pul berishganida o'quv qurollari, maktab uchun darsliklar sotib olardik. Buni ko'rgan sheriklari: "Biz nevaralarimizga pul bersak yeydigan narsalar sotib olishadi, sizning nevaralaringizning kitoblar sotib olishiga xavas qildim"-deyishardi.

Buvim menga turli xil afsonalar, rivoyat, ertak va latifalarni aytib berishardilar.

Barchasi hammon yodimda. 7-sinfni bitirib, yozgi ta'ilda sochimni uzunlashtirish uchun 40 yuvar qilgani buvimning oldilariga borganman. Har kuni kechi payt yangi qo'shnilarnikidan qatiq olib boshimni yuvishga yordam berishardilar, keyin oppoqqina Hojidan olib kelingan ro'molni boshimga o'rashimga berishgan. Shu orada Namanganga o'zlari to'qigan do'ppi jiyaklarni olib borib, lozim jiyakka almashtirgani meni olib ketishgan, tanishlarining uylarida qolganmiz, uy egasining yolg'iz qizi bo'lib, men bilan tengqur edi, kechasi joyini ho'llab qo'yib teskarisiga joyini solib olganiga ko'zim tushib qoldi. U qiz bilan dugonalashdik, sochimni yuvish uchun qo'shnilarnikidan 2 kosa yog'li qatiq olib keldik. Bittasini ovqat bilan ichdik, keyingisiga sochimni yuvib, ro'molimni o'rab oldim. Ertasiga uyga qaytdik. Buvim menga ko'p kitoblarni qo'shiqqa o'xshash ohangda, juda chiroyli tarzda o'qib berishardilar, zavq bilan tinglab o'tirardim.

Buvim 2022-yil dekabr oyida vafot etishdi. Xotiralari doimo abadiy.

Hasanov Mirakbarjon Xurshid o'g'li

Karate bo'yicha 2-o'rin, dyuzdodan 3-o'rinlarni, mental arifmetikadan Oliy o'rin olib, Qozog'istonga yo'llanmani qo'lga kiritgan. Hozirgi kunda bir qancha ijodiy ishlari antologiyalarda chop etib kelinmoqda. 20 dan ortiq antologiya va kitoblarning dizayneri.

1-SINFGA BORISH XOTIRALARIDAN

Jizzax viloyatining Baxmal tumanida yashaganmiz. Bu yerni onam "Susambil" deb nomlab olishgan, chunki biz yashaydigan ko'p qavatli uy tog'ni tekislab qurilgan, havosi toza, katta ariqdan buloq suvi oqadi, suvi ham totli, maxsus o'rmon ham bor, u yerda bahor, yoz va muz fasllarida turli qushlar sayrab turadi, turli-tuman mevalar bor: olma, o'rik, maymunjon, yovvoyi olcha va boshqalar.

Men 6 yoshga to'lganimda, 1-sinfga tayyorlaydigan ustozning uyiga olib kirishdi. Har kuni dars mashg'ulotlariga qatnab yurdim. Avgust oyida onamga 1-sinfga bormoqchiligimni aytdim. Ota-onam bir maktabga olib borishdi, yoshim to'g'ri kelmasligini, bo'sh joy bo'lsa, aytishlarini aytdi. Shu bilan uyga qaytdik.

5-sentabr kuni amakivachcham va do'stlarimga qo'shilib, oq ko'ylak va shimimni kiyib, maktabga boradigan avtobusga chiqib ketdim.

Maktabga borganimda amakivachcham kirgan 1-"A" sinfga kirganimda, ustoz ro'yxatdagi o'quvchilarning ism va familiyasini o'qiy boshladi, mening ism va familiyam chiqmadi, shundan so'ng ustoz ism familiyamni va yoshimni so'radi, keyin meni tashqariga chiqarib yubordi va eshik yonida turdim. Bu sinf ustozini darsdan chiqib, meni direktor o'rinbosarining yoniga olib bordi. 1-"B" sinfdagi o'quvchi kamligi uchun meni shu sinfga kiritishdi. Shu sinfdagi o'qiy boshladim.

Har kuni berilgan vazifalarni bajarib bo'lib, baliq ovlashga do'stlarim bilan borar edim.

Baliqni uzun setka bilan ariqdan tutardik, tutilgan baliqlarni hammamiz bo'lishib olardik. Bir qarich uzunlikdagi baliqlarni onamga bersam, qovirib, pishirib berishardi.

Kichik baliqlarni yelimdan tayyorlagan maxsus idishimizga solib qo'yardik.

Shunday qilib, 6 yoshimdan maktabga borganman.

Hasanova Muslimabonu Xurshid qizi

Mental arifmetikadan Oliy o‘rin olib, Qozog‘istonga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan. 44-maktabda o‘tkazilgan rasm chizish tanlovida 1-o‘rinni olgan. Hozirgi kunda bir qancha ijodiy ishlari antologiyalarda chop etib kelinmoqda.

20 dan ortiq antologiya va kitoblarning dizayneri.

KITOB VA TELEFON

Bir kuni telefon ko‘chada ketayotib kitobni uchratib qolibdi va kitobni turtib ketibdi. Kitob: "Nega meni turtib ketding, shuncha yo‘l turgan bo‘lsa", -debdi.

Shunda telefon: "Sening ishing nima? Men xohlaganimni qilaman. Yo‘limda uchraganni turtib ketaveraman, menga farqi yo‘q", -debdi.

—Bo‘pti, senga bitta shartim bor: agar sen ko‘p maqol, topishmoq, she‘r, ertak aytib bersang, g‘olib bo‘lasan va senga hech nima demayman. Agar men yutsam, aytganimni qilib kitoblar o‘qiysan, aqlli bola bo‘lasan,-debdi.

Telefon: —Bo‘pti kelishdik.

Kitob rosa ko‘p varoqlarni varaqlab o‘qib, yodlabdi va uxlab qolmaslik uchun oyoqlarini sovuq suvga tiqib o‘tiribdi.

Telefon esa: —Men hamma narsani bilamanku, faqat o‘yin o‘ynaganim yaxshi, kitobning nima keragi bor, baribir men yutaman-debdi va keyin ular uxlashibdi.

Tong otibdi. Ikkovlari ham bitta joyga kelishibdi. Musobaqalashishni boshlashibdi, bellashuv uch soatdan oshib ketibdi va nihoyat kitob yutibdi. So‘ngra telefon kitobdan kechirim so‘rabdi, kitob esa kechirib, shunday debdi.

—Agar sen kitob o‘qiganingda g‘olib bo‘larding, sen faqat o‘yin o‘ynagansan.

—Sen bularni qayerdan bilding?

— Chunki juda ko‘p kitob o‘qisang, miyang zo‘r ishlaydi, she‘r, maqol, ertak va boshqa ma'lumotlarni ham bitta o‘qishda aytib bera olasan.

—Unda uyga borib, darsimni tayyorlab, kitobni o‘qiyman.

Kitob uni birpasta gapiga tushunganiga hayron bo‘libdi. Telefon kitob orqali bilim olayotgan ekan, hozirda baxtli va saodatli hayot kechirmoqda.



Yusupboyeva Maftuna Ulug'bek qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida tug'ilgan.

Qoraqalpoq Davlat Universiteti jurnalistika fakulteti 2-kurs talabasi. Respublika "Turon Yosh Ijodkorlar" Uyushmasi hamda "Do'rmon" ijodkorlar klubi a'zosi.

Ijodiy ishlari: 2019-yildan nashr etilgan "Qirq qiz dovrug'i va muborak lahzalar", 2023-yil AQShda nashr etilgan "Scientific and creative research of the future youth of New Uzbekistan" nomli almanlarda hamda Amazonda sotuvga qo'yilgan "The spring of goals" almanaxida nashr etilgan.

Qolaversa, Hindistonning "PAGE 3 NEWS" jurnali, Germaniyaning "Raven Cage" jurnallarida ko'plab maqolalari chop etilgan.

Yaqinda Ukrainada bo'lib o'tgan "Dnepr tepaliklarida matbuot bahori" 21-xalqaro festival-tanlovida "JURNALISTIK ASAR" nominatsiyasi g'olibasi hamdir.

Germaniyaning SPSC Ambassador elchisi.

Argentinaning "JUNTOS POR LAS LETRAS" ijodkorlar tashkiloti a'zosi.

**OTAM MEN UCHUN HECH NIMA QILMAYDI EMAS,
OTA FARZANDIGA O'ZIDA BORINI BERADI**

Qishning sovuq kunlari edi. Men abituriyent edim. Yangi oila bo'lganligimiz uchun, turmush tarzimiz oddiy edi.

Otam oddiy ishchi, onam esa uy bekasi oilada 4 farzandimiz men eng kattasi edim.

O'qishga bo'lgan ishtiyoqim kuchli va ota - onam ham bilimli bo'lishlarimizni xohlashardi. Bir kuni kursdan kech chiqdim. Kun botgan, odamlar xira ko'rinadigan darajada qorong'u edi. Uyim o'qish joyimdan uzoq bo'lishiga qaramasdan har kuni piyoda uyga qaytardim.


Ko'cha sovuq va erigan qorlarning suvi etigimni ho'l qilib yubordi. Uyga yetguncha juda sovqotib bordim. Uyga keldim va eshikni taqillatdim, dadam ochdilar: "Yaxshi keldingmi?"-deb kutib oldilar. Men etigimni yechib, asta ichkariga kirayotgan edim, dadam orqamdan kelayotib oyoq izlarim namligini ko'rib: "To'xta, oyog'ing suvmi"-deb, hayratomuz savol berdilar. Men bu ahvol oddiy holdek bo'lib ketganligi uchun ilojsiz ohangda: "Ha"-deya sekingina xonamga kirib ketdim. Kiyimlarimni alishtirib dasturxon davrasiga bordim, hamma jam: otam, onam, singlim va egizak ukalarim. Kechki taomni yeyayotgan ekanlar, yoqimli ishtaxa tilab ularga qo'shildim.

Kecha egizak ukalarimdan biriga buvim yangi ko'ylak olib kelgan ekanlar, "Mengayam olib berasiz dada"-deb yana bitta kichik ukam yig'lab, xarxasha qilayotgandi.

Bilasiz egizaklarga biron narsa olmoqchi bo'lsangiz ikkalasiga ham teng qilib olishingiz kerak. Biridagi narsani ko'rib, boshqasi xafa bo'ladi va huddi shu narsani olmaguncha qo'ymaydi. Bizda ham shunday bo'ldi. Ukamni ertagayoq olib beraman deb oyim zo'rg'a yupatdi. Va dadamga sekingina: "Menda ozgina pul bor. Bu o'g'lingizga endi olib bermasak bo'lmaydi"-deb aytib qo'ydilar.

Tun bo'ldi. Erta uchun tayyorlarlik ko'rishim kerak edi. Etigim yaroqsiz ahvolda edi. Biroz xafa bo'ldim. Ammo bilamanki, ota-onamning yangi etik olib berishga puli yo'q. Hozir ularga aytishning iloji ham yo'q edi. Indamadim. Etigimni tozalab, uni yopishtirib qo'yimoqchi bo'ldim. Superkleyni olib ishga kirishdim. Bu qorga chidaydigan qilib, eplab tuzatib oldim.

Tong otdi. Ertasi kuni o'qishga shoshilib tayyorgarlik ko'rdim. Nonushta ham qilmadim va ko'chaga oshiqdim. Dadam ortimdan darrov chiqdi-da, to'xtatib qo'lidagi bitta o'n minglikdan uzatdi. "Buni olib qo'y, yetadimi, kechqurun uyga taksida qayt. Sovuqda ko'chada yurma. Oyoqlaring shishib ketibdi bu yurishda kasal bo'lib qolasan".



Shu zumda etim jimirlab, bo'g'zimga bir nima tiqilganday bo'lib hech bir so'z aytolmadim. Dadamning vaziyatini tushundim, axir yosh bola emas edim. Men ularga hech nima deyolmadim, rahmat ham aytolmadim, ko'zim ichi yoshga to'lib ketgandi, sekingina bosh irg'ashdan boshqa narsaga qurbim yetmadi va chiqib ketdim.

Yo'lda yurishda davom etar ekanman, ko'z yoshlarimni artib, miyig'imdan kulgancha: "Dada, sizni yaxshi ko'raman", -deyoldim xolos.

Bilasizmi, otaning mehri boy yoki oddiylikda bilimaydi. Otaning mehri farzandi uchun qilayotgan harakatlarida; uning mehri sizga aytgan nasihatlarida; uning mehri sizga bergan e'tiborida bilinadi. Va shu onda farzand uchun hech qanday tuyg'u va narsa shu e'tibor va mehrchalik aziz bo'lolmaydi. Otalar qay holatda bo'lsalar ham o'zlarida borini berishadi.



Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi

2005-yil 22-oktabr kuni tavallud topgan. Toshkent shahri Chilonzor tumani E-8-10 uyda yashaydi. Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası 1-bosqich iqtidorli talabasi.

NAVRO‘Z JOZIBASI

Annotatsiya: Mazkur maqola Navro‘z bayramining kelib chiqishi va shuningdek, undagi bo‘ladigan jarayonlar haqida ko‘lab foydali ma‘lumotlar keltirib o‘tildi. Bulardan tashqari turli millarlar qay tarzda nishollashi hamda ayrim mamlakatlarda taqiqlanganligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: grek-makedon, fors, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, BMT, YUNESKO, ahamoniylar va shu kabilar.

Sir emaski, hozirda ko‘plab yurtlarda Navruz bayrami keng nishollanib kelinmoqda. Bu bayram kunida nimalar ro‘y berishi haqida ma‘lumot berishdan avval, “Navro‘z” iborasi qanday kelib chiqanligi haqida tanishib olamiz.

“Navro‘z” iborasi - asli forscha so‘z bo‘lib, “Yangi kun” degan ma‘noni anglatadi. Navro‘z olovga sig‘inuvchi majusiylarning eng katta va mashhur bayramlaridan biri hisoblanadi. “Navro‘z” forscha shamsiy yilning boshi bo‘lib, Ozar oyining o‘n to‘rtinchi kuniga to‘g‘ri keladi va yana besh kun davom etadi. Milodiy yilning esa yigirma birinchi martiga to‘g‘ri keladi. Navro‘z bayramining qachon vujudga kelgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shuni bilamiz-ki, u O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘onistonda Ahamoniylar davrida (miloddan avvalgi VI asrlarda) keng tarqalgan. Shu ma‘noda Navro‘zning tarixini 25-30

asrga ega deb taxmin qilish mumkin. Navro‘z bayramining paydo bo‘lishi haqida esa, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi yarim afsonaviy shoh “Jamshid” - nomi bilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni Jamshid podshohlik taxtiga o‘tirgan kun “Navro‘z” deb atalgan ekan. Umuman olganda, bu to‘g‘risida rivoyatlar bisyor. Fors avomlarining odatlariga ko‘ra, ular Navro‘z kechasi o‘t-alanga yoqib, ertasi ertalab ko‘chalarga suv separ ekanlar. Bu ularni turli xil udumlari hisoblanadi. Shuningdek, bu bayramni Bahoiylar ham keng nishonlashadi. O‘n to‘qqiz kun ro‘za tutib, buning yakunida yigirma birinchi Ozarmohda bayram qiladilar.

Ma‘lumot qilib, “Navruz bayrami” haqidagigi 2010-yil 23-fevralda Afg‘oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 21-martni “Xalqaro Navro‘z kuni” deb e’tirof etish haqida qaror qabul qilgan.

YUNESKO e‘lon qilishicha, Navro‘z muhim oilaviy an‘ana bo‘lib va bu bayramda pishiriladigan noz-u ne‘matlar, taomlar, shuningdek, shirinliklar tozalik va farovonlik hamda boylikni ifoda etadi.

BMTning maorif, fan va madaniyat tashkiloti – YUNESKO Navro‘zni insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritgan, bu bayram turli tillarda Nawrouz, Novruz, Nowrouz, Nowrouz, Nawrouz, Nauryz, Nooruz, Nowruz, Navruz, Nevruz, Nowruz, Navruz deb nomlangan.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniydan tashqari O‘rta Osiyo xalqlarining Mahmud Qoshg‘ariy hamda Umar Hayyom kabi allomalari ham Navro‘z haqida qimmatli va oltinga teng ma‘lumotlar qoldirganlar. Mir Alisher Navoiy hazratlari ham o‘z asarlarida: “Har tuning qadr” o‘lubon, Har kuning o‘lsun Navro‘z”, – deb bejizga bu kunni alohida yod etmaganlar.

Bu fikr va mulohazalar Navro‘zning qadimdan tabiat va bahor bayrami bo‘lganini, xalq ma‘naviyatining ajralmas va tarkibiy qismi bo‘lganini yana bir karra isbotlaydi. Biroq, tarixda Navro‘zning mazmunini turlicha talqin qilib, ba‘zilar uni taraqqiy ettirishga, afsuski, boshqalar esa uni taqiqlashga harakat qilishdi. Jumladan, grek-makedon va arab istilosi davrlarida Navro‘z taqiqlanib, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, Navro‘z o‘tmishdagi har bir sinfiy jamiyatda podshohlar hukmdorligi, diniy ideologiya ta‘sirida shaklan o‘zgarib tursa-da, u o‘zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. U haqiqiy

xalq bayrami bo'lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan.

Shuni ta'kidlash joizki, Navro'z ayyomi xalqimiz uchun sharqona yangi yilning boshlanishi, eng qadimiy, asl milliy va eng ardoqli bayram hisoblanadi. Navro'z bayramining biror bir din yoki e'tiqodga umuman daxli yo'q bo'lib, ushbu kun azal sharq xalqlarida yangilanish bayrami, hamda dehqonchilik mavsumining boshlanishi, yangi hayot pallasi sifatida ko'riladi. Navro'z o'tmishda qandaydir diniy mazmunga ega bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo u bugunda bunday mazmundan mahrum bo'lib, millati, dini, irqi, ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, barcha xalqlarga mansub dunyoparvar insonlarning eng xalqchil ayyomiga aylanib ulgurgan.

Navro'z bayram kuni turli yurtlarda, turlicha nishonlanadi. Misol tariqasida, bizning yurtimizda Navro'z bayrami 21-mart kuni erta tongdan nishollanlanadi. Bu bayram haqida ko'plab ma'lumotlar so'zlash mumkin, misol tariqasida shuni aytish mumkin-ki, Navro'z bayrami keng dalalarda, katta hududlarda nishonlanadi. Bayramga tayyorgarlik ko'rishda odamlar o'z uylarini va mahallalarini tartibga soladilar, yangi kiyimlar sotib oladilar. Navro'zdan oldin, bayram paytida va undan keyin bayramning asosiy taomi bo'lmish sumalak tayyorlash odat tusiga kirgan.

Sumalak to'liq unib chiqqan bug'doydan tayyorlangan shirin xamir bo'lib, katta qozonda pishiriladi. Sumalak tayyorlash uchun do'stlar, qarindoshlar va qo'shnilar – odatda ayollar – qozon atrofida yig'ilishadi, hamma navbatma-navbat aralashtiriladi. Tayyor bo'lgach, sumalak qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', do'stlar orasida tarqatiladi. Navro'z bayramida odamlar qarindosh-urug', do'stlarni ziyorat qilib, bolalarga sovg'a-salomlar ulashadi. Bulardan tashqari, ko'k somsa, ko'k chuchvara hamda bahor salatlari va shu kabi turlicha taom, shirinliklar katta dastaxonga tortiladi. Bu vaqtda odamlar bahorga, Navro'z bayramiga bag'ishlangan kuy-qo'shiqlar hirgoya qilib, raqslarga tushishadi va shu kabi qiziq o'yinlar o'ynaladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Navro'z bayramining jozibasi har bir inson uchun sevimli bayram hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Everyday Life in Central Asia: Past and Present. Bloomington: Indiana University Press, 2007 — 202–203 bet.
2. Tursunova Zulfiya. Postsovet davridagi O'zbekistondagi ayollar hayoti va turmush tarzi: imkoniyatlarni kengaytirish va tinchlik o'rnatish marosimlari. London: Leksington kitoblari. 2014. 26–27-betlar.

3. Taylaqov N. I “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etishning istiqbollari”. Toshkent. 2002.



Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi

FarDU 2-

bosqich talabasi.

YOSHLARDA KITOB O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada, kitobxonlik haqida hamda kitobxonlikni targ'ib etish masalari shunidek, yoshlarda kitobxonlikni rivojlantirish masalari hamda kitob o'qish madaniyatining shakllantirish yo'llari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kitob, madaniyat, maraifat, kitobxonlik, davlat, davr, fuqaro, ijtimoiy, hodisa

Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O'qish madaniyati” kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir. “Mutolaa” so'zi arabcha “o'qish” degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: “Mutolaa” madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash

lozim bo‘ladi» 2 . Professor E.I.Yo‘ldoshev “O‘qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta’rif beradi: “O‘qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi”

Jumladan, axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot okimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi. Axborot olish madaniyatini to‘liq egallagan shaxsga nisbatan esa kitobxon terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Ta’lim o‘qitish, o‘qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta’lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o‘quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar faqatgina sinfda o‘qitiladigan darslarda shakllanib kolmasdan, balki sinfdan tashkari, anikrogi axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shugullanish orqali egallanadi Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot-kutubxonachilik bilimlarining o‘quvchilar orasida targ‘ib qilishdir. Buning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma’lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o‘qish, eng muhimi, uni uqish, o‘rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma’lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni o‘rganish kabilar kiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshadigan, jo‘n narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi.

Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o'tish lozim. Tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o'tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o'qituvchi va kutubxonachi o'tkazadigan soatlar, darsni o'tkazish joyini, ya'ni sinfdan yoki axborot-kutubxona muassasasida o'tkazilishini aniq olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko'pgina o'qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo'lsalar-da, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o'qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma'ruzalar o'qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o'tish qoidalari, uslubiyotini o'rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o'ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo'lga qo'yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya'ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo'lga qo'yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o'tkazishning aniq shakllarini ishlab chikish zarur.

Axborot-kutubxona muassasalarida o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim:

- kitobxonning oilaviy sharoiti, oilada Axborot-kutubxona muassasasining bor-yo'qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o'rganish;
- umumta'lim muassasasi dasturidagi fanlarni hisobga olish, bolaning qiziqishlari doirasini aniqpash hamda shunga muvofiq tarzda yakka va ommaviy rahbarlik yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish;
- o'quvchida o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirib borish, axborot olish malakalarini shakllantirish;
- o'quvchining yosh xususiyatlari va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli-tuman ommaviy shakllardan samarali foydalana olish,

mavjud sharoitdan kelib chiqib yangi shakllarni izlab topish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lish;

- o'quvchilarni axborot olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ularni Axborot-kutubxona muassasalariga, mutolaaga kengroq jalb qilish;

- o'quvchilar o'rtasida axborot-kutubxonachilik bilimlarini keng targ'ib qilish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning asosiy mas'uliyati kutubxonachilar zimmasiga tushadi. Bu jarayon esa mutaxassislardan juda katta pedagogik mahoratni, professional bilimni, eng muhimi, o'z kasbiga bo'lgan fidoyilikni talab etadi. Bu asosan kutubxonachi kadrlar tayyorlash jarayonida shakllanadi. Shu sababli ham kutubxonachi kadrlarga bo'lgan talabni kuchaytirishga, ta'lim sifatini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kosimova, X. (2022). THE IMPORTANCE OF READING CULTURE IN THE FORMATION OF A HEALTHY SPIRITUAL CLIMATE IN THE FAMILY. ASIAPACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 7-13.

2. Qosimova, X. (2022). THE SIGNIFICANCE OF LIBRARY CULTURE IN FORMING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY. Science and Innovation, 1(8), 142-148.

3. Qosimova, X. (2022). OILADA SOG'LOM MA'NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI. Science and Innovation, 1(B8), 142-148.

4. ҚОСИМОВА, Х., & КАРИМОВА, Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 612-615

5. Джалолова, М. (2021). Эзоза Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова". ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." Scientific progress"



Ashurova Shaxina Avaz qizi

2004-yil 30-oktabrda Buxoro shahrida tug'ilgan. 2011-2022-yillarda Buxoro shahridagi 30-maktabda tahsil olgan. 2017-yilda rus tili olimpiadalarida qatnashib, faxriy o'rinlarni egalladi. U 2022 yilda maktabni tamomlagan. Xuddi shu yili u Pedagogika institutining boshlang'ich va maktabgacha ta'lim fakultetiga o'qishga kirdi, ikkinchi kurs talabasi. O'qish davrida fakultetning talabalik hayotida faol qatnashgan va ayni paytda iqtidorli talaba. Ilmiy rahbari Xasanova Gulshod Qosimovna. Bo'sh vaqtda "Steam ta'limi kontekstida boshlang'ich maktab o'quvchilarida tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiya ustida ishlayapti. Ingliz, rus, o'zbek va tojik tillarini yaxshi biladi, sport va adabiyotga qiziqadi, ingliz klassiklarini o'qishni afzal ko'radi.





Bayram dasturida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 31 yillik shodiyonlariga bag'ishlab e'lon qilingan tanlovlar va boshqa tanlovlar g'oliblari taqdirlandi.

ФОРМИРОВАНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ

Хасанова Гульшод Касимовна –
преподаватель

Бухарского государственного педагогического института

Ашурова Шахина Аваз кизи – студентка

Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В работе указаны основные преимущества STEAM образования его виды и роль в подготовке специалистов основные задачи концепции образования. Подход основан на сочетании теоретических и прикладных навыков нескольких областей знаний.

Ключевые слова: образование, программа концепции, STEAM подход, нанотехнологии, программисты, креативное направление, индустриальное развитие, навыки, популяризация обучения.

Abstract: The paper indicates the main advantages of STEAM education, its types and role in the training of specialists, the main tasks of the concept of education. The approach is based on a combination of theoretical and applied skills, several areas of knowledge.

